



ABDURAUF FITRAT'S VIEWS ON RAISING CHILDREN (ON THE EXAMPLE OF "FAMILY")

Usmanova Feruza Lukman qizi

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi Master's degree in "Textual Studies and Literary Source Studies"

Annotation

This article is dedicated to the work of Professor Abdurauf Fitrat, a great representative of the twentieth century, and "Family or Family Management Procedures." The main issue was the moral upbringing of the child in the family, and an attempt was made to compare it with the views of Eastern thinkers who lived and worked before him. Fitrat divides the upbringing of a child into three types and explains how it can lead to unpleasant situations if not enough attention is paid to moral upbringing.

Keywords. Family, child rearing, moral upbringing, parental attitude to the child, oriental thinkers and their views on moral upbringing.

XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati yuzaga keldi va aynan shu davrda yangi o'zbek adabiyoti shakllana boshladi. Mana shu davrda adabiyotga zamonaviy dostonchilik, ocherk, hikoya janrlari, fantastik uslub kabilar kirib keldi. Publististika rivojlandi, realistik proza shakllandi. Adabiyotga "millat" va "vatan" tushunchalari kirib keldi. Milliy she'rlarga rag'bat kuchaydi. Diniy ta'lif bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o'qitish kun tartibiga qo'yildi. Bu davr mustaqillikdan so'ng milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti deb davrlashtirildi.

O'lkamizda bu jarayon jadidchilik harakatini deb nom oldi va uni vujudga keltiruvchilar qatorida Fitrat ham bor edi. Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda dunyoga keldi. Dastlabki ta'limni eski maktabda, keyinchalik Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan. XX asr boshlarida vujudga kelgan "Tarbiyayi atfol" jamiyatni ko'magida Istambuldagagi Voizon madrasasida (1908-1913-yillar) tahsil olgan. Turkiya dorilfununida o'qiyotganida uning zukko, bilimdonligi professor-o'qituvchilarni hayratga soladi. Unga Fitrat — Donishmand taxallusini beradilar. Fitrat adabiyotga adabiyotshunos va shoir sifatida qadam qo'ydi. 1905-1907-yillarda "Munozara" (dastlabki nomi "Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar xususida qilgan munozarasi") asarini yozdi. "Sayha" ("Chorlov", "Na'ra") (fors tilida), "Sayyohi hindi" ("Bayonoti sayyohi hindi"), "Rahbari najot" ("Najot yo'li"), "Tarixi Islom" asarlarini Turkiyada tahsil paytida yozgan va "Munozara" 1908-yilda, "Sayha" 1910-yilda, "Sayyohi hindi" 1913-yilda Istambulda nashr etilgan. "Rahbari najot" va "Oila" 1915-1916-yillarda Bokuda nashrdan chiqqan. Bu asarlar o'sha davrdayoq xalq orasida keng tarqalgan. "Rahbari najot" asarini Fitratning do'sti, shoir va noshir Abdulvohid Burhonov Sank-Peterburgda nashrdan chiqqargan.

U qomusiy olim, adabiyot nazariyachisi, o'tkir tilshunos, dramaturg, shoir, publistit, noshir, jurnalist, talantli davlat va jamoat arbobi, san'atshunos, siyosatshunos, birinchi o'zbek professori. Uning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg'unlik, g'aflatdan uyg'otish, ilm-ma'rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga, birinchi navbatda, milliy mustaqillikkha chorlashga qaratilgan. U o'zbekning o'zligini tanishi, ota-bobolari kabi ulug'vor kashfiyotlar qilishga, birlashgan, kuchli davlat tuzishga chaqirgan. Butun ijodining mohiyati xalqning qalb ko'zini ochish, mehnat, yaratish, o'qish, kurashga davatdan iborat.

Adib turk va tatar she'riyatida shakllangan va o'zbek xalq og'zaki ijodida ayrim unsurlari bo'lgan sochmani milliy adabiyotimizga olib kirdi ("Yurt qayg'usi" ("Bir o'zbek yigitining tilindan").

Ey, mungli Xotun, sen kimsan?



Ey, g‘amli Ona, nechuk mundan ayrilmaysan?

Yonimda, ko‘zimda, miyamda, yuragimda nima axtarasan, nechuk ketmaysan?...¹.

Fitrat 20-yillarning o‘rtalarida yozgan va 30-yillarda qayta ishlagan “Qiyomat” hayoliy hikoyasi hozirgi o‘zbek adabiyotida fantastikaning paydo bo‘lishi va shakllanishida milliy manba bo‘lib xizmat qildi.

Yozuvchi 1914-1916- yillarda “Rahbari najot”, “Oila” va “Mavludi sharif yoki “Muxtori xayr ul-bashar”, 1917-1920-yillarda “O‘qu”, “Sharq siyosati” va “Yig‘la, Islom”, 1925-yilda esa “Muxtasar islom tarixi” asarlari bilan muslimon olami uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan yoki muayyan tarixiy davrda saqlanib qoladigan ma’naviy qadriyatlarni yoritib bergen. Fors tilida yozilgan “Rahbari najot” risolasida tafsir, hadis, fiqh, kalom ilmlari, shuningdek, lisoniy, falsafiy, dunyoviy ilmlar to‘g‘risida aniq tasavvur bergen. Avlod, badan, fikr, axloq tarbiyasiga oid falsafiy-etik qarashlarni olg‘a surgan.

Buyuk mutaffakirlar farzand tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelganlar. Sharqda “Kalila va Dimna” nomi bilan mashhur bo‘lgan hindlarning “Panchatantra” (“Besh hikmat”), “To‘tinoma” nomi bilan shuhurat qozongan “Shukasaptata” (“To‘tining yetmish besh hikoyasi”), Yususf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Baxt-saodatga yo’llovchi bilim”), Muslihiddin Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) va o‘nlab durdonia asarlar asrlar mobaynida farzandlar tarbiyasida dastur vazifasini o‘tab kelmoqda².

Forobiy ham yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda aqliy va axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratib, bilim va ma’rifat yaxshi axloq bilan bezanmog‘i ma’qul, aks holda kutilgan natijaga erishilmaydi, bola yetuk bo‘lib yetishmaydi, degan xulosaga keladi.

Hazrat Alisher Navoiy yosh bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur degan fikrni aytgan bo‘lsa, Abdurauf Fitrat “Oila” asarida “... emizish davri tamom bo‘lgandan so‘ng har qanday tarbiyaning davri boshlanadi” – degan fikrni yozgan. Mana shu nuqtada ikki buyuk mutafakkir olimlarimizning fikrlari uyg‘unligini kuzatishimiz mumkin.

Yusuf Xos Hojibning fikriga ko‘ra esa bola tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. Farzand tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina ularning noo‘rin xatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi deb ta’kidlaydi.

Kaykovusning “Qobusnama” asarida “Farzandga adab, hunar o‘rgatmakni meros deb bilg‘il. Agar sen xoh unga adab o‘rgatg‘il, xoh o‘rgatmag‘il turmush mashaqqatlarining o‘zi unga o‘rgatur” kabi mulohazalarni kuzatamiz³. Kaykovus Gishtosb haqidagi hikoyatni misol qilib keltirib fikrini dallilaydi.

Abdurahmon Jomiy ham “Bahoriston” asarida o‘g‘li Ziyovuddin Yusufga ibratomuz she‘r bilan murojaat qiladi:

Nodonlardek otangning kimligini pesh qilma,

O‘zingga sen hunardan o‘zgani ota bilma.

Jomiyning ushbu asarida taomlanish haqida quyidagi misralarni keltiradi:

Ovqatning ko‘p-kamin sog‘lig‘im xarob

Qilmasin, deganlar me’yorida yer⁴.

Fitratda esa “Hamma ovqatning kam yoki ko‘p bo‘lishiga yo‘l bermang, bunga diqqat qiling, ovqat kifoya qiladigan darajada bo‘lsin”⁵, deydi.

Sharq allomalari axloqiy-tarbiyaviy asarlarining asosini Qur‘oni Karim suralari, payg‘ambarimiz Muhammad sollohu alayhi vasallam faoliyati va ko‘rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyalar tashkil qiladi. Kaykovusning “Qobusnama” asari qatorida Fitratning “Oila” risolasi ham mana shu alfozda bitilgan.



Fitratning “Oila” risolasida oilaning jamiyat va inson hayotidagi rolini oshirishga, oila a’zolarining huquqiy me’yorlarini belgilashga qaratilgan fikr va mulohazalar yanada rivojlantirilgan⁶.

O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining Oila kodeksida “Ota-onan o’z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o’z bolalarining sog’ligi, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy, kamoloti haqida g’amxo’rli qilishlari shart” ekanligi belgilangan (63-modda).

Tarix fanlari doktori Sh. Vohidov Fitaratning “Oila” va “Rahbari najot” asarlarini forschadan o’zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan (1998, 2001).

36 yoshda nohaq qatag‘on qilingan Said Axroriy (1895-1931) “Oila kitobi (Xonim qizlarimizga tortuq)” nomli risola yozib, o’zbek oilalari haqida dastlabki asarlarning debochasini boshlab bergen. Risolada balog‘at yoshidagi qizlarni oilaga tayyorlash usullari ilmiy-amaliy usulada bayon qilib berilgan⁷.

Bundan tashqari, XI asrda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutatg‘u bilig”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari han ma’lum ma’noda oila mavzusiga qaratilgan. Jahon adabiyoti namunalardan Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik”, Dostoyevskiyning “Telba” asari kabilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin, lekin ushbu asarlarning hech biri boshidan oxirigacha oila boshqarish, oilada ota, ona, farzand kabilarning roli, vazifa va burchlari haqida batafsil bayon etilmagan. Abdurauf Fitrat “Oila” asarida o’z fikrini Qur’oni Karim va hadislar bilan dalillab, yoritib bergen. Ushbu asar oilaning paydo bo’lishi, uning jamiyatdagi o’rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va qoidalarga bag’ishlangan.

Ushbu asarda Fitrat islomshunoslik fani va dunyoviy ilmlardan boxabar huquqshunos, sotsiolog, pedagog, tabib va iste’dodli ruhshunos-pedagog sifatida namoyon bo’ladi. “Odamning fe’l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim”⁸, – deb yozadi . Adib asar muqaddimasida “... oila boshqarishga asos solish Bani Odam madaniyatining asosi ekan, ... Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo’ladi. Agarda bir mamlakatning axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo’l qo’ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”⁹, – deb keltiradi.

Ushbu fikrlar bundan yuz yil burun aytilgn bo’lsa-da, hamma zamonlar uchun o’z zalvorini saqlab qoladi. Millatning poydevori oila ekan, avvalo, oila tinch-totuvligi, o’zaro ahil-inoqligi, baxt-u saodati jamiyatning qay darajada mustahkam qurilganligini ko’rsatuvchi oyna sifatida e’tirof etilgan. Bir oila barpo etishdan oldin avval ota-onan o’z farzandini to’g’ri yo’lga solgan bo’lishi, axloqi pokiza ekanligiga to’la ishonch hosil qilishi kerak. Bu kabi mulohazalarni davom ettirib boraversak, ildizi ilmgan borib taqaladi. “Har bir millat taraqqiyisi uchun asosiy sabab ilmdir”¹⁰.

Fitrat aqlning kamolini yaxshi bilmoq, yaxshi o’rganmoq va mukammal fikr qilmoqda deb biladi. “... odam aqli va fikrashi bilan boshqa jonzotlardan ajaralib turadi. Odamning kamol topishi uchun badantarbiya bilan bir qatorda aqliy va axloqiy tarbiya ham shartdir”, deydi va axloqiy tarbiyani eng yuqori darajadagi masalaga ko’taradi¹¹. Axloqiy tarbiya talab darajasida bo’lmasa, deb fikrini davvom ettirib, aqli hamda jismoniy kuchini o’zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi deydi.

Fitrat axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o’ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo’lsin, ded ta’kidlaydi.

Fitrat tarbiyada shunday tavsiyalarni beradi: “Bola tarbiyasi jarayonida ertak orqali bo’lsa ham ularga doim fidokor odamlar haqida, muruvvatli shaxslarning fe’llari haqida, mo’min va Allohdan qo’rquvchi odamlar haqida hikoya qilib, yaxshi amallarning foydasini eslatib o’tish lozim... Yomon xulq va ishyoqmaslikning zararlarini haqida bolalarga aytib berish va zehniga buni joylash ota-onan uchun vojibdur”¹². Bola tarbiyasida faoliyat (harakat) mayli haqida so’z yuritadi va boladagi shu



istakka qarshi chiqib, uni “qimirlamay o‘tirishga” o‘rgatilsa, ulg‘ayib xafsalasiz, dangasa, ishbilmash bo‘lib voyaga yetadi. Boladagi izzat-nafsn sindirishning oqibatida, undan biror-bir yaxshilik, foyda, fazilat kutib bo‘lmasligiga olib keladi. Bolalarga “ahmoq”, “eshak”, “juvonmarg”, “noma’qul qilibsan”, “b... yebsan”, “o’ldiraman seni”, “senga gapirishni kim qo‘yibdi?” deb qarg‘ash, do‘pposlash, ko‘cha-ko‘yda bolani urish, izzat-nafsgiga tegib, uni yo‘q qiladi deydi.

Fitrat bolani shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo‘lgan intilishlari hech qachon xazon bo‘lmasin, so‘nmasin, balki ko‘karsin deb yozadi. Yuqorida fikrlarni jamlab xulosa qiladigan bo‘lsak, adibning ushbu asarni yozishda sharq mutafakkir olimlarining asarlaridan ilhomlangan va ularning g‘oyalarini o‘zining fikrlari bilan yanada rivojlantirib, boyitgan deb aytishimiz mumkin. Shu o‘rinda Ibn Sinoning “Sharq ko‘proq nasihat yo‘li bilan, G‘arb esa hayotni real ko‘rsatish orqali tarbiyalashga moyil”ligini qayd etishni lozim deb topdik. Inson kamoloti ota-onaning (badan, aqliy, axloqiy) tarbiyasi, yon atrofidagilarning xulq-atvori, pand-nasihat muhim ahamiyatga ega ekanligi bayon etilgan. Ushbu asarni har bir oila vakillari uchun asosiy qo‘llanma sifatida foydalanishlarini tavsiya etamiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. www.kh-davron.uz
2. Кайковус. “Қобуснома”. –Т.: Янги аср авлоди, 2016. – 224 б.
3. Кайковус. “Қобуснома”. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 112.
4. Абдураҳмон Жомий. “Баҳористон”. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 19.
5. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 281.
6. С. Мамажонов “Маънавият юлдузлари” китобидан. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/abdurauf-fitrat-1884-1938/>
7. Abdujalilova Shoira. “Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari” pedagogika fanlari nomzodi ilmiy unvonini olish uchun dissertatsiya. – Т., 2005. – В. 16.
8. Abdurauf Fitrat. “Oila”. – Т.: Ma’naviyat, 2000. – В. 5. www.ziyouz.com/kutubxonasi.
9. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 214.
10. Abdujalilova Shoira. “Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari” pedagogika fanlari nomzodi ilmiy unvonini olish uchun dissertatsiya. – Т., 2005. – В. 26.
11. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 283.
12. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 288.